O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KECHKI TA’LIM VA MAGISTRATURA FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqi asosida
UDK:658.01:6.03.04

RAHMONOVA ZILOLA ISLOMJON QIZI

KORXONALARDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI JORIY ETISH VA UNI SERTIFIKATLASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mutaxassislik: 70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: **i.f.n., dots. Mamatov M.A**

Toshkent-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.n., dots. Mamatov M.A**

Kafedra mudiri _____ **i.f.n., prof. X.S.Asatullayev**

Kechki ta'lim va magistratura
fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J. Karimqulov**

Men, Rahmonova Zilola Islomjon Qizi shbu magistrlik dissertasiya ishini musta
bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka y
qo'yilgan holatida magistrlik dissertasiya ishi Yakuniy davlat attestasi
komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" b
qo'yilishidan xabardorman.

_____ ___ ___ _____

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI BAYONNOMASI

Toshkent shahar **2025 yil "11" aprel**

Iqtisodiyot fakul'teti 2-kurs 70310102-"Iqtisodiyot" tarmoqlar va sohalar mutaxassisligi MI-11 guruhi magistranti Raxmonova Zilola Islamjon kizi ning "Korxonalarda sifatni boshqarish yuritmalarini takomillashtirish va uni sertifikatlashtirish tajribalarini takomillashtirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

1. Dissertatsiya ishchisini birinchi bobi - ni nazariy kismini takomillashtirish kerak.
2. Dissertatsiyani ikkinchi bobida xorijiy davlatlar tajribasini kuproq yoritish.
3. Dissertatsiyaning uchinchi bobida ishlab chiqarish korxonalari asosida takomillashtirish

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi**) Tavsiya etilsin

Komissiya raisi: Asatullaev X.S

Komissiya a'zolari: Rasulov A.O

Sharipov B.B

Odilova D.B

Mamatov N.A

Izoh:

1. Magistrlik dissertatsiya dastlabki himoyasi talab qilingan xujjatlar to'liq rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan holdagina amalga oshiriladi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti korxonalarda sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va sertifikatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda sifatni boshqarish tizimlarining iqtisodiy samaradorligi, innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, xodimlarning malakasini oshirish va monitoring tizimlarining roli batafsil tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida xalqaro standartlar, xususan, ISO 9001 talablari asosida sifatni boshqarish tizimlarini muvaffaqiyatli joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. IoT, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili kabi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini taqdim etishi aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqotda sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirishning milliy va xalqaro talablari o‘rganilib, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur sharoitlar belgilab berilgan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari korxonalarga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mijozlarning qoniqishini ta’minlash va xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ilmiy jamoatchilik va amaliyot mutaxassislari uchun dolzarb bo‘lib, sifat menejmenti sohasida yangi izlanishlar olib borish uchun muhim asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Sifatni boshqarish tizimlari, Sertifikatlashtirish jarayonlari, ISO 9001 standarti, Innovatsion texnologiyalar, IoT (Internet of Things), Sun’iy intellekt, Katta ma’lumotlar tahlili, Monitoring tizimlari, Xodimlarning malakasini oshirish, Ekonomik samaradorlik, Raqobatbardoshlik, Sifat madaniyati, Tizimni avtomatlashtirish, Sifat auditi, Milliy va xalqaro talablar, Korporativ jarayonlar, Mijozga yo‘naltirilganlik, Sertifikatlashtirish organlari, Raqamli transformatsiya.

ANNOTATION

This dissertation research focuses on studying the issues of implementing quality management systems and improving the certification processes in enterprises. The study provides a detailed analysis of the economic efficiency of quality management systems, the importance of innovative approaches, the enhancement of employee competencies, and the role of monitoring systems.

Within the framework of the research, practical recommendations have been developed for the successful implementation of quality management systems based on international standards, particularly ISO 9001 requirements. It has been identified that the application of innovative technologies such as IoT, artificial intelligence, and big data analysis offers opportunities to automate processes and enhance efficiency.

Additionally, the research examines national and international requirements for the certification of quality management systems, highlighting the conditions necessary for improving the competitiveness of enterprises and ensuring their successful operations in international markets.

The findings of this dissertation provide enterprises with the tools to enhance economic efficiency, improve customer satisfaction, and align with international standards through the implementation and improvement of quality management systems. The results are relevant to the scientific community and practitioners, serving as a significant foundation for further research in the field of quality management.

Key words: Quality management systems, Certification processes, ISO 9001 standard, Innovative technologies, IoT (Internet of Things), Artificial intelligence, Big data analysis, Monitoring systems, Employee competency development, Economic efficiency, Competitiveness, Quality culture, System automation, Quality audit, National and international requirements, Corporate processes, Customer orientation, Certification bodies, Digital transformation..

MUNDARIJA

I BOB.	**KIRISH**	3
1.1.	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	4
1.2.	Tadqiqot maqsadi va vazifalar	6
1.3.	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	9
1.4.	Tadqiqot ob'ekti va predmeti	11
1.5.	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	11
1.6.	Magistrlik dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
II BOB.	**ADABIYOTLAR SHARHI**	14
2.1.	Nazariy adabiyotlar sharxi	14
2.2.	Empirik adabiyotlar sharxi	14
2.3.	Nazariy adabiyotlar sharhi	17
III BOB.	**TADQIQOT METODOLOGIYASI**	19
3.1.	Tadqiqot dizayni	19
3.2.	Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	21
3.3.	Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	22
3.4	Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	23
3.5	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	25
3.6	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	26
IV BOB.	**TAHLIL VA NATIJALAR**	28
4.1.	Sifatni boshqarish tizimlarining nazariy asoslari	28
4.2.	Korxonalarda sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish amaliyoti	35
4.3.	Sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish jarayonlari	43
4.4.	Korxonalarda sifatni boshqarish tizimlarini takomillashtirish strategiyalari	49
V BOB.	**XULOSA**	56
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	56
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	56
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR		60

I BOB. KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib va takomillashib borishi bozor mexanizmini tobora murakkablashtiradi. Bu hol iste'molchining ehtiyoji, talabi, didi va dunyoqarashining o'zgarishi hamda qonunlarning o'zgarishi sharoitida ishlab chiqaruvchilarning bozor tizimiga nisbatan proporsional harakati kuzatiladi. Unda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi keskin iqtisodiy raqobatdan tashqari sotuvchi va xaridor o'rtasida tovar bahosi va sifatini kelishishning o'ziga xos raqobati ham vujudga keladi.

Raqobat kurashida asosiy richag korxonalar uchun mahsulot sifati bo'lishini e'tiborga olib aytish kerakki, sifat menejmentini korxonalarda samarali faoliyatini ta'minlash iqtisodiyotning dolzarb masalasidir. Rivojlangan davlatlarning iqtisodiy muvaffaqiyati importga nisbatan eksport salmog'ining bir necha barobar kattaligiga bog'liq. O'z mahsulotini eksport qilayotgan mamlakatlarda shu tovarning jahon bozoridagi mavqei yuqori degan xulosani beradi. Bu xulosaga erishish uchun mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonada sifat menejmenti tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilgan va xalqaro standartlarga javob beradi.

Mamlakatimizda ham yuqori iqtisodiy samaraga erishishning eng muqobil varianti milliy korxonalarda sifat menejmenti tizimini samarali tashkil etish va tovarlar sifatini keskin oshirish zarur. Buning uchun masalani ikki jihati e'tiborni tortadi:

birinchidan, dastlab korxonalarda sifat menejmentining samarali tashkil etish va boshqaruvni optimallashtirish uchun malakali kadrlar zarur;

ikkinchidan, sifat menejmentining nazariy va amaliy asoslarini yorituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini ko'paytirish va o'quv jarayoniga tatbiq etish lozim.

Ushbu tadbirlarni ketma-ketlikda amalga oshirish va o'quv jarayonini muntazam yangi ma'lumotlar bilan yangilab borish fanning fundamental asoslarini takomillashtiradi.Raqobatbardosh global iqtisodiyotda yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talablarning ortishi sifatni boshqarish tizimlarining (QMS) samaradorligini yanada muhim ahamiyatga ega qilib qo'ydi. Bugungi kunda